



# TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



## MAKRO VA MIKRO SOTSIOLINGVISTIKA

**Norbekova Madina**

*Kattaqo'rg'on davlat pedagogika institute Filologiya va ijtimoiy fanlar fakulteti  
Filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili yo'nalishi talabasi*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada sotsiolingvistikaning asosiy ikki yo'nalishi — makro va mikro sotsiolingvistika tushunchalari tahlil qilinadi. Ularning tadqiqot obyektlari, ko'lam, metodologik farqlari hamda jamiyat lisoniy hayotidagi o'rni yoritiladi. Shuningdek, har ikki yo'nalishga oid misollar orqali til va jamiyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlar ochib beriladi.*

**Kalit so'zlar:** *sotsiolingvistika, makro sotsiolingvistika, mikro sotsiolingvistika, lisoniy vaziyat, ikki tillilik, nutqiy muloqot.*

**Аннотация:** *В данной статье анализируются проблемы двух основных направлений социолингвистики — макро- и микросоциолингвистики. Освещены их объекты исследования, сфера применения, методологические различия и роль в языковой жизни общества. На примерах обоих направлений раскрывается взаимосвязь языка и общества.*

**Ключевые слова:** *социолингвистика, макросоциолингвистика, микросоциолингвистика, языковая ситуация, билингвизм, речевая коммуникация.*

Sotsiolingvistika til va jamiyat o'rtasidagi murakkab munosabatlarni o'rganadigan fan sohasi bo'lib, tadqiqot obyektlarining ko'lamiga ko'ra makro va mikro sotsiolingvistikaga ajratiladi. Bu bo'linish sotsiologiyadagi makro va mikro sotsiologiya ajralishiga o'xshash bo'lib, jamiyat miqyosidagi umumiy jarayonlar hamda kichik ijtimoiy guruhlar doirasidagi nutqiy faoliyatni qamrab oladi.

Makro sotsiolingvistika tilning yirik ijtimoiy omillar bilan bog'liq jarayonlarini o'rganadi. Bunda til butun jamiyat, millat, etnos yoki ijtimoiy qatlam miqyosida tahlil qilinadi. Tilning ijtimoiy differentsiatsiyasi, ya'ni milliy til va uning kichik tizimlari o'rtasidagi munosabatlar aynan makro sotsiolingvistikaning asosiy obyektidir. Makroyondashuv, ayniqsa, ikki tillilik, til siyosati, tilni me'yorlashtirish va kodifikatsiyalash, lisoniy rejalashtirish kabi masalalarni o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki bu muammolar alohida shaxs yoki kichik guruh emas, balki butun jamiyat manfaatlariga daxldordir. Ko'p millatli jamiyatda kichik etnos tilining saqlanib qolish darajasini aniqlashda alohida shaxs nutqini emas, balki butun etnos doirasida tilning funksional imkoniyatlari tahlil qilinadi. Bu jarayonda tilning rasmiy, norasmiy va madaniy sohalaridagi qo'llanilishi makro sotsiolingvistik yondashuv asosida o'rganiladi. Mikro sotsiolingvistika tilning kichik ijtimoiy jamoalar (oila, maktab sinfi, ishchi guruh, o'yin jamoalari va boshqalar) doirasida qanday ishlatilishini o'rganiladi. Bu jamoalar nafaqat miqdor jihatdan, balki sifat jihatdan ham yirik ijtimoiy guruhlardan farq qiladi. Kichik



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



jamoalarda til ko‘pincha o‘ziga xos qonuniyatlarga bo‘ysunadi. Bu qonuniyatlar katta jamiyat doirasida to‘liq ishlamasligi yoki aksincha, kuchli ta‘sir ko‘rsatmasligi mumkin. Oilaviy muloqotda qo‘llaniladigan til ko‘pincha umummilliy tilning transformatsiyalangan shakli bo‘ladi. Bunday “oilaviy til”da qisqartmalar, kinoyaviy so‘zlar, faqat o‘sha oila a‘zolarigagina tushunarli nutq birliklari mavjud bo‘ladi. Xuddi shuningdek, sport jamoasi yoki o‘yin guruhida ham faqat o‘sha guruh a‘zolariga xos nutq qoliplari shakllanadi. Mikro sotsiolingvistika asosan quyidagi ikki savolga javob izlaydi:

1. Muayyan kichik ijtimoiy guruhda qanday til qo‘llanadi?
2. Bu til guruh a‘zolari tomonidan qanday ishlatiladi?

Bu jarayonda nutq qoliplari, stereotiplar, kommunikativ tajriba asosida shakllangan ifodalar muhim o‘rin tutadi. Guruh ichidagi faoliyat davomida muayyan nutqiy aktlarning boshlanishi va yakunlanishini bildiruvchi maxsus shakllar vujudga keladi. Shifokor va bemor o‘rtasidagi muloqotda shifokorning mavqeyi, bemorning roli, savol-javob shakllari qat‘iy nutqiy mexanizmlar orqali boshqariladi. Bu holat mikro sotsiolingvistik tahlil orqali muloqotchilarning ijtimoiy rollari va nutqiy strategiyalarini aniqlash imkonini beradi.

Mikro sotsiolingvistikada diada va triada shaklidagi muloqotlar (er–xotin, o‘qituvchi–o‘quvchi, shifokor–bemor va boshqalar) keng o‘rganiladi. Natijasida muloqotchilarning mavqei, roli va ularni boshqaruvchi nutqiy mexanizmlar aniqlanadi. U. Labov va D. Fenshellarning psixoterapevt va bemor o‘rtasidagi muloqotga bag‘ishlangan tadqiqotlari nutqiy muloqotning nafaqat verbal, balki noverbal (imo-ishora, harakat, o‘tirish holati) jihatlarini ham o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, makro va mikro sotsiolingvistika sotsiolingvistikaning bir-birini to‘ldiruvchi ikki muhim yo‘nalishidir. Makro sotsiolingvistika jamiyat miqyosidagi lisoniy jarayonlarni yoritib bersa, mikro sotsiolingvistika kichik ijtimoiy guruhlar doirasida til ning real ishlatilishini chuqur tahlil qiladi. Har ikki yondashuvni uyg‘un qo‘llash til va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarni to‘liq anglash imkonini beradi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Berdialiyev A. O‘zbek sinxron sotsiolingvistikasi. –Toshkent.: 20192.
2. Berdialiyev A, Turdibekov M. Sotsiolingvistika. –Toshkent.: Nodirabegim, 2022.3.
3. Elova D, Safarova G. Sotsiolingvistika. –Toshkent.: 2021.4.
4. Usmanova Sh, Bekmuxsmmedova N, Iskandarova G. Sotsiolingvistika. –Toshkent.: Universitet, 2014.